

QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYALAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLARI

Djumaniyazov Ubbiniyaz

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agroterxnologiyalar instituti

ORCID: 0009-0008-0923-4950

ubbinyaz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'nggi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek kelajakdag'i istiqbollar haqida so'z yuritiladi. Qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, qishloq xo'jaligi, infrastruktura, import, eksport, klaster, fermer, mehnat resurslari, modernizatsiya.

ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Джуманиязов Уббинияз

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация. В данной статье говорится о реформах, реализованных в сельском хозяйстве нашей страны за последние годы, а также о перспективах на будущее. Анализируются инвестиции в сельское хозяйство.

Ключевые слова: инвестиции, сельское хозяйство, инфраструктура, импорт, экспорт, кластер, фермер, трудовые ресурсы, модернизация.

PROSPECTS FOR INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN AGRICULTURE

Djumaniyazov Ubbiniyaz

Karakalpak Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract. This article talks about the reforms implemented in the agriculture of our country in recent years, as well as future prospects. Investments in agriculture are analyzed.

Key words: investment, agriculture, infrastructure, import, export, cluster, farmer, labor resources, modernization.

Kirish.

Qishloq xo'jaligini samarali va barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti - bu ularga etarli miqdorda investitsiya kiritishdir. Qishloq xo'jaligi siyosatining muhim vazifasi - qishloq xo'jaligiga investitsiyalar darajasini oshirish uchun qulay shartsharoitlarni yaratishdir. Investitsiya - daromad (foyda) olish maqsadida iqtisodiyotda pul (kapital)ning uzoq muddatli qo'yilmasi. Ular yaratuvchanlikni, asosiy fondlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek ular bilan bog'liq aylanma mablag'larning o'zgarishini aks ettiradi.

Qo'shimcha ravishda, investitsiyalar - qimmatli qog'ozlarga patent intellektual mulk huquqlarini olish va boshqalar. Investitsiyalar - daromad (foyda) keltiradigan yoki ma'lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga kiritiladi. Iqtisodiy kategoriyalar uchun investitsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega: u sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq; resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi; investitsiyalarni qaytarish ehtimoli xavfi; Resurs iste'moli va samaradorlik o'rtasidagi (odatda uzoq muddatli) vaqtinchalik (o'lchov birligi) aniqlik bor. Qishloq xo'jaligidagi investitsiya faoliyati yuridik shaxs, fermer va fermer, fuqaro va davlatning investitsiyalar amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlari majmuidir.

Adabiyotlar sharhi.

Rossiyalik olim Kravchenko (2022) maqolasida qayd etishicha qishloq xo'jaligiga faol investitsiyalar oziq-ovqat zaxiralarining ko'payishini ta'minlaydi, iqtisodiyotni rivojlantirishga, yangi ish o'rnlari yaratishga, qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga, tashkilotlarning texnik jihozlarini modernizatsiya qilishga katta hissa qo'shami va shu orqali qishloq hayotining jozibadorligi uchun sharoit yaratadi.

Ushachev, Maslova, Zaruk, Avdeev (2022) tadqiqotchilarning fikricha qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligidir, chunki qishloq xo'jaligi ko'plab xavf-xatarlarga duchor bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy tatqiq etish metodologiyasi, tizimli tahlil, taqqoslash, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik kabi iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasida 2021 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 245 trillion so'm yoki 2020 yilga nisbatan 5,2 foiz ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan. Jumladan, korxonalar va aholining o'z vositalari 38,1 foizni, chetdan qabul qilingan mablag'lar 61,9 foizni tashkil etdi. Chetdan qabul qilingan mablag'lar tarkibini chuquriroq tahlil qilganda davlat buyudjeti 8,8 foiz, banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 8,0 foiz, chet el investitsiyalari va kreditlari 42,7 foizni tashkil etgan. Yoki mamlakat tashqi savdosida eksport 15,1 mld. AQSh dollari, import esa 21,1 mlrd.

AQSh dollarini tashkil etgan yoxud farqi 28,4 foizga eksport importga nisbatan kam. Umuman olganda mamlakatimiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj salmoqli o'rinni egallamoqda. Endi jalb qilinayotgan sarmoyalardan mamlakat ichida qay darajada foydalanilayotganligiga agrar soha misolida nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida olib borilgan islohotlar natijasida, yer maydonlari to'liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o'rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi. Meva-sabzavotchilik, g'allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Buning natijasida, pandemianing salbiy ta'siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik mevasabzavot eksport qilindi. 91 ming hektar yer maydoni qaytadan foydalanishga kiritildi. 133 ming hektar yoki o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. O'tgan yillarda qishloq xo'jaligi yerlarning unumdorligini yanada oshirish maqsadida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resusrslaridan oqilana foydalanish davlat dasturini amalga oshirish doirasida agrar sohaga xorijiy investitsiyalarning joriy etilishi natijasida ko'plab gidrotexnik inshoot va sug'orish tarmoqlari qurlib, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yerning unumdorligini oshirish, zamонавиагротехнологияларни joriy etishga 600 million dollardan ziyod kredit va grant mablag'lari jalb qilindi.

Suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlari 5 barobarga ko'paytirilib, 430 ming gektarga yetkazilishi, 90 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. Islohatlarning hozirgi bosqichida qishloq xo'jalgi mahsulotlarini qayta ishlashga alohida e'tibor berilmoxda. Yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari nafaqat mamlakat aholisini iste'moliga, balki chet ellarga ham eksport qilinmoqda. Xaridorlar orasida faqat qo'shni mamlakatlar emas, balki Yevropa va Amerika singari olis o'lka mamlakatlari borligi ham diqqatga sazovar. Mamlakatimiz tadbirkorlari chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar barpo etishga jiddiy e'tibor qaratishmoqda, chunki bunday hamkorliklar jahon bozoriga chiqish uchun imkon yaratadi. Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etishda eng avvalo, yangi yerlarni o'zlashtirish, hosidorlikni oshirish hisobiga o'simlikchilik tarmog'ini rivojlantirishga, chorvachilikda esa chorva mollarining zotini yaxshilash, chorvaning ozuqa bazasini mustahkamlash, shuningdek, baliqchilik, asalarichilik, parrandachilikni rivojlantirishga qaratilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Bizning fikrimizcha, kelgisida investitsiyalarni qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga ham yo'naltirishga alohida etibor qaratish lozim deb

hisoblaymiz va tadqiqot kuzatuvlariga asoslangan holda jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini oshirish borasida quyidagi takliflarni bildiramiz:

- iqtisodiyotning ustivor sohalarini moliyalashtirishda xorijdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, hamda davlat kafolati ostida olingan kreditlarni faqat uzoq muddatlarga kichik foizlarda jalb qilish;

- investitsiyalar asosan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish potentsialini rivojlantirishga, yangi ish o'rinalarini yaratishga safarbar etilishi lozim, shu jumladan import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish;

- paxta xom-ashyosini qayta ishlovchi va tayyor mahsulot chiqaruvchi fabrikalar qurilishiga, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi kichik korxonalarga, tomchilatib sug'orish va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etishga mo'ljallangan loyihalarni ko'paytirishga e'tibor qaratish;

- qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash sohalarga ko'piroq davlat kafolatidagi investitsiya loyihibalarini jalb etish, jalb qilinadigan investitsiyalar miqdorini belgilashda esa qishloq xo'jalik tarmog'inining mamlakat YaIMidagi salmog'iga monand ravishda taqsimlash;

- investitsiya loyihibalarini tuzishda aslo pala-parishlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, ularni puxta xisob-kitob qilib amalga oshirishga va fermer xo'jaliklari va boshqa tadbirkorlarning o'z mablag'larini ko'proq jalb etish lozim.

Bundan tashqari fermer xo'jaliklarga me'yoriy-huquqiy sharoitlarda ham imkoniyatlar yetarli darajada emas. Jumladan, "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunning 1998 yilgi qabul qilingan variantida agar fermer yerdan foydalanishda uch yillik o'rtacha hosildorlikni pasaytirib yuborsa yer fermerdan olib quyilishi mumkin edi, keyingi 2004 yildagi qonun bo'yicha bir martalik xatolikda yer olib quyilishi mumkin. Fermerlarni kuchli nazorat bilan emas, balki iqtisodiy richag bilan boshqarish kerak. Masalan, shartnomada kelishilgan reja bajarilmadimi qonunda va shartnomada ko'rsatilgan tartib asosida ish yuritish yoki yer solig'ini oshirish orqali boshqarish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Кравченко.Т.С (2022) Инвестиционная активность в отраслях аграрного сектора // Вестник аграрной науки. -С. 97-105.

Ушачев И.Г, Маслова В.В, Зарук Н.Ф, Абдеев М.В (2022) Механизмы инвестиционного процесса в аграрном комплексе России // Вестник Российской академии наук. -С. 140-149.